



**Received:** November 11, 2021  
**Accepted:** December 23, 2021  
**Available online:** December 25, 2021

## **Mastona G‘oziyeva**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
tayanch doktoranti  
Toshkent, O‘zbekiston

### **TALABALAR LISONIY MULOQOTINING SOTSIOPRAGMATIK TAMOYILLARI: TUSHUNCHA VA QOIDALAR**

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada talabalar lisoniy muloqotining sotsiopragmatik tamoyillari tadqiq etilgan. So‘nggi yillari jamiyatning turli sohalaridagi taraqqiyot natijasida xorij tillariga talab ortib bormoqda. Bugungi globallashuv davrida jahonga yuz tutgan ilg‘or davlatlar mehnat bozorining asosiy talabi – chet tilda bemalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalaridan xabardor va innovatsion g‘oyalarga boy hamda o‘z uslubiga ega kadrlardir. Bunday talab o‘z o‘rnida mamlakatimizda olib borilayotgan ta‘lim bilan bog‘liq islohotlarning asosiy negizini tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning barcha bosqichlarida chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘rganuvchilarning ko‘pmadaniyatli dunyoning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarida faoliyat olib borish uchun chet tilda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

“Kompetensiya” tushunchasi ko‘pgina xorijiy va mahalliy adabiyotlarda turli soha vakillari tomonidan o‘z sohasi yo‘nalishidan kelib chiqib turlicha talqin etiladi. Ammo bu atamaning asosi yagona mazmun, ya‘ni bilim, malaka va ko‘nikma kabi tushunchalarning shaxsda mujassamligi va ularni turli vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqadiki, chet tili kommunikativ kompetensiyasi o‘sha tildagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatidir. O‘zbekiston Respublikasi davlat ta‘lim standartida chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, sotsiolingvis-

## **Mastona Gozieva**

PhD student, Uzbekistan State World  
Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: gmastona2726@gmail.com

### **SOCIOPRAGMATIC PRINCIPLES OF STUDENTS’ LINGUISTIC COMMUNICATION: CONCEPTS AND RULES**

#### **ANNOTATION**

The purpose of this article is to study the socio-pragmatic principles of linguistic communication of students. In recent years, as a result of developments in various spheres of society, the demand for foreign languages is growing. In today's era of globalization, we all know that the main demand of the labor market in the advanced countries of the world is the ability to communicate in a foreign language, knowledge of computer technology and rich innovative ideas and their own style. Measures to further improve the system of study of foreign languages were highlighted in the Law on Education, the National Program of Personnel Training and the Law on Education adopted by the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan.

The main purpose of teaching a foreign language at all levels of education in the Republic of Uzbekistan is to enable students to work abroad in scientific and industrial fields in a multicultural world formation of communicative competence in the language.

The concept of competence varies in many foreign and domestic publications by representatives of different fields depending on their activity.

However, the basis of this term is considered to be a single content, that is, the integration of concepts such as knowledge, skills and abilities in a person and the ability to apply them correctly in different situations. It follows that the

tik, pragmatik kompetensiyalar kiritilgan va bu kompetensiyalar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishga asos sifatida xizmat qiladi. Til insonlar uchun aloqa vositasi ekanligi haqiqatdir. Kishilar ma'lum bir jamiyatda yashar ekanlar, birlari bilan o'zaro ijtimoiy aloqada bo'lishi, bir xil til, qarashlarga ega bo'lishi va ijtimoiy hodisalarni birgalikda baham ko'rishi lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'zlashtirish mobaynida o'rganilayotgan xorijiy tilni faqat lingvistik xususiyatlarini o'zlashtirish haqiqiy yozma va og'zaki aloqani ta'minlay olmaydi.

Maqolada asosan, o'rganilayotgan til madaniy qadriyatlari, shuningdek, sotsiopragmatik tamoyillar, qoidalar va tushunchalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, sotsiopragmatika, madaniyat, chet tili o'qitish.

communicative competence in a foreign language is the ability to apply existing knowledge, skills and competencies in a foreign language in the process of communication. The state educational standard of the Republic of Uzbekistan includes linguistic, sociolinguistic, pragmatic competencies as components of communicative competence in a foreign language, which serve as the basis for its improving. It is true that any language is a means of communication for people. As long as a person lives in a certain society, he/she must interact with others, have the same language, beliefs and share social events. It should be noted that mastering only the linguistic features of a foreign language studied during the acquisition of a foreign language does not provide real written and oral communication. The cultural values of the language studied in the article are also socio-pragmatic principles, rules concepts are analyzed.

**Key words:** communicative competence, pragmatic competence, socio-pragmatics, culture, foreign language teaching.

## KIRISH

Talabalar lisoniy muloqotining sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlashdan oldin "kompetensiya" tushunchasi mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritish zarur. Adabiy tahlillar bu tushunchaning bir ma'noga ega emasligini, uning tuzilishiga ko'ra murakkab jarayonga taalluqli g'oyaga asoslanganligini dalillaydi.

Bu masalani o'rgangan V.M. Basovanning fikricha, "kompetensiya" dastlab XVI asrda Yevropa manbalarida, jumladan, yuridik adabiyotlarda shaxsning mulkka egalik qilish huquqini ifodalovchi atama sifatida uchraydi. XVII asr boshlariga kelib esa, huquqshunoslarning bilim, ko'nikma va malakasini baholovchi tushunchani ifodalash uchun muomalaga kiritilgan. XVIII asrda bu atama badiiy adabiyotda inson obrazini tasvirlash uchun qo'llanila boshlagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mazkur atamaga ham ijtimoiy, ham gumanitar fanlarga oid tushunchalarga ta'rif berish uchun murojaat qilingan.

Vebsiter lug'atiga ko'ra, "kompetensiya" tushunchasi 1596-yili paydo bo'lgan. Devid Makklellandning "Test-tekshiruv: kompetensiya va aql-idrok" maqolasini biznesda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning boshlang'ich nuqtasi deb hisoblash mumkin. Ushbu maqolada muallif shaxs qobiliyatini va uning aqliy salohiyatini aniqlovchi testlar insonning kelgusidagi muvaffaqiyatini belgilab bera olmasligini va bu ishlarni amalga oshirishda boshqacha yondashuv ishlab chiqishni tavsiya qiladi. Aqliy salohiyatni baholovchi testlar respondentning haqiqiy hayotdagi muvaffaqiyatini to'liq bashorat qila olmaydi. Shu bois olimlarda ushbu jarayonni amalda baholay oladigan yangicha yondashuvni ishlab chiqishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bundan

tashqari, 286ta tahlil umumlashtirilib, kompetensiyani tadqiq qilish doirasida bir qancha muammolar o'rganiladi. Devid Makklelland hamda S.Spenser kompetensiya tushunchasini ilk marotaba o'rgangan olimlardandir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Po'lat Omonov tadqiqotlarida aytilishicha, "kompetensiya" tushunchasi lotincha "competere" – mos kelmoq so'zidan olingan bo'lib, "o'z kasbiga yaroqli, loyiq" degan ma'noni bildiradi [Omonov P., 2021;14]. Ushbu so'z keng ma'noda umumiy yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada qo'llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetensiya – kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish layoqatidir. N.Narziyevaning ta'riflashicha, inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni bildiradi Narziyeva N., 2019;15]. M.Vahobov fikriga ko'ra, "kompetensiya" o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amaliy qo'llay olish layoqati demakdir [Vahobov M., 2007; 5]. M.Hamdova ta'rifiga ko'ra, "kompetensiya" atamasi lotincha "competere" – muvofiqlik, mutanosiblik demakdir. Chet tili so'zlari lug'atida kompetensiya kompetentlik doirasi, bilimga ega bo'lgan masalalar doirasi sifatida qaraladi. Lug'atlarda bu tushuncha "Yaxshi tushunadigan masalalar sohasi" va boshqaruv atamalarining izohli lug'atida mansabdor kishining shaxsiy imkoniyatlari, uning ma'lum bir doirani takomillashtirishda ishtirok etishiga imkon beradigan malaka (bilim, tajriba) deb tushuniladi. Ma'lum bilim, ko'nikmalar mavjudligi sababli, qarorlar qabul qilish yoki o'zi uchun qaror qabul qilish [Hamdova M., 2020; 11].

Biznes sohasi vakillari qatori, ta'lim tizimi mutaxassisleri ham bu yangi yondashuvga katta qiziqish bilan qaray boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, "kompetensiya" lotincha "competo" – erishmoqdaman, mos kelaman, yaqinlashmoqdaman degan ma'nolarni anglatuvchi keng qamrovli tushunchadir. Mutaxassis (xodim), shu jumladan, muhandis pedagoglar va amaliyot o'qituvchilari, psixologlar faoliyatiga oid kompetensiya deganda, birinchidan, bevosita kasbga aloqador muammolarni hal etish jarayonida bilim, amaliy ko'nikma, malaka, hayotiy tajriba, kasbiy salohiyat va iste'dod-iqtidor va mahorat asosida tizimga asoslangan faoliyatli yondashishni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar, ikkinchidan, zamonaviy mehnat bozori sharoitida, hatto, nostandart va muammoli vaziyatlarda ham kafolatli natijalarga eltuvchi "innovatsion trayektoriya"ni topa oladigan qarorlar qabul qilish va uchinchidan, sanab o'tilgan barcha jabhalarni amaliyotga tizimli, maqsadli tatbiq eta olish qobiliyatlari majmuasi tushuniladi [Nabiyev A., Jalolov J., Haydarova Sh., 2020; 228–230].

Biroq, ta'lim muhitidagi kompetensiya tushunchasi menejmentdagi kabi aniq va ravshan emas edi. M.Urazova ta'lim jarayoniga pedagogik loyihalarni (loyihaviy kompetensiya) joriy etish kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muhim

rol o'ynaydi va zamonaviy pedagogning raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, – degan fikrda. Uning ta'kidlashicha, “kasbga tayyorlash tizimida kasbiy kompetensiyaga bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy bilim, malaka, sifatlar, bo'lajak o'qituvchi individualligini ochib berish va kasbiy o'z-o'zini takomillashtirishga doimo shay turishni shakllantiruvchi jaryonni boshqarishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi” [Urazova M., 2015;12]. N.Suleymonova ham bu masalani maxsus o'rganib, kasbiy kompetentlik, bu – uzluksiz o'zini rivojlantirish va takomillashtirish sharoitida o'z kasbiy xarakteristikasini, kasbiy-pedagogik faoliyatini o'zining individual ishlash uslubi asosida xolis baholay olishga qodir hamda kasbiy pedagogik faoliyatni egallashga yordam beruvchi shaxs integrativ sifatining uzoq kechadigan jarayoni bo'lib, kasbiy o'sish va o'zligini ko'rsata olishga intilish demakdir, degan fikrni ilgari suradi [Suleymonova N., 2002; 155]. Manbalarga tayanib aytadigan bo'lsak, ta'limda pedagoglarni qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish, asosan, ikki yo'nalish – kompetensiyaga va insonparvarlik tamoyillariga tayanilgan yondashuv asosida amalga oshirilgan. Mazkur yo'nalishlar o'tgan asrning 70-yillarida paydo bo'lgan. Bu maktablarga Skinner hamda Maslou asos solgan edi. Ammo, keyinchalik ta'limda kompetensiya boshqaruv asosi bo'lganmi yoki yo'qmi, bu aniq ham emas. Dalillardan ko'rinib turibdiki, ta'limdagi kompetensiya ham boshqaruv, ham kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. S.N. Krasnokutskayaning so'zlariga ko'ra, barkamol shaxs shakllanishining ijtimoiy ahamiyati qadim zamonlardan buyon pedagogika fani doirasida o'rganilgan. Muallifning fikricha, avlodlardan qolgan boy ma'naviy meros va tajribani o'rganish orqali yangi avlodni tarbiyalashga erishish mumkin. Ushbu muammoni taniqli olimlar Kirill, Mefodiy, F.Skorina, S.Poloskiy, E.Slaveneskiy. I.Beskiy. S.Uvarova, I.Delyanova o'rganganlar. K.D. Ushinskiyning asarlarida ta'kidlanishicha, inson ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga doimo “tayyor bo'lishi” lozim. L.Tolstoy, N.Pirogov insonning malakasiga ehtiyoj hamisha ijtimoiy masala bo'lgan, deya kompetentlikka ta'rif beradilar. Ular odamning biror narsaga tayyorligi uning millati, e'tiqodi, fuqarolik pozitsiyasi bilan bog'liq deb ishonishgan. V.Rozanov, N.Berdyayev, V.Klyuchevskiyning tadqiqotlarida insondagi bilim, tajriba va malaka asosiy mezon – “o'z taqdirini tanlashning ichki ruhiyati”ga tayanadi, degan mazmundagi ta'rif berilgan [Krasnokutskaya S., 2015; 34]. O.Daminovning ta'kidlashicha, “kompetensiya”, bu – kasbiy faoliyat sohasida sifatli va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat usullarini amaliyotda yuqori darajada qo'llash qobiliyatidir [Daminov O., 2020; 13]. Sh.S. Sharipova buni “ixtisoslik fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va bu – tizimli yondashuvga asoslangan, kasbiy faoliyatidagi shaxsiy motivatsiya (shaxsga yo'naltirilganlik) va xususiyatlari (tadqiqotchilik va kreativlik) asosida kasbiy muammolarni hal qilishi va pedagogik faoliyatning o'zgaruvchan sharoitiga moslashuvchanligi, shu bilan birga pedagogik-psixologik kolleboratsiyani olib borish layoqatidir” deb ta'riflaydi [Sharipova Sh., 2020; 11].

E.Zeer va E.Simanyukning fikriga ko'ra, maqsadlar sari ustuvor harakat, ta'limni chuqur o'rganish, bu sohada o'zini namoyon etish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z

ovozi ega bo'lish, shaxsiy qarashlarini rivojlantirish kompetensiyaga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, tajriba muayyan ishlarni bexato amalga oshirish uchun tayanch vazifasini o'taydi. Masalan, muloqotni o'rganish uchun muloqotga kirishish zarur. Tajribani esa bir ishni tez-tez takrorlab turish orqali oshirib borish mumkin [Zeer E., Simanyuk E., 2005; 23-30].

Kompetensiyaviy yondashuvni tadqiq qilish tobora ommalashib borayotganiga qaramay, "kompetentlik" va "kompetensiya"ning asosiy tushunchalari to'g'risida olimlar hali ham bir to'xtamga kelgan emas.

"Leksik o'zlashmalar lug'ati"da "kompetentlik" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan. 1) kompetensiyaga ega bo'lish; 2) muayyan sohada biror-bir muammoga munosabat bildirishga imkon beradigan bilimlarga ega bo'lish. "Kompetensiya" atamasi ham o'z lug'aviy ma'nosiga ega: 1) har qanday organ yoki mansabdor shaxsning o'z vazifasi doirasida vakolatga ega bo'lishi; 2) shaxsning bilim, tajriba va malakaga ega bo'lishi [Shishov S., 2002; 58–62].

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, har ikki atamaning lug'aviy ta'riflari orasidagi farq juda oz. Buni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan ko'plab ta'riflarda sezish mumkin. Ba'zi olimlar ularni sinonim sifatida ishlatadilar, boshqalari esa bu tushunchalarni turli asoslarga ko'ra ajratadilar.

"Kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari ustida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar nafaqat o'xshashlik, balki semantik jihatdan ham bu atamalar turli ma'noga ega ekanligini isbotlaganlar. "Katta ensiklopedik lug'at"da "kompetensiya"ga biror-bir organ yoki mansabdor shaxsning qonun doirasida Nizom va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga tayanib ish ko'rishi yoki shaxsning biror-bir sohada tajribaga ega bo'lishi, deb ta'rif berilgan [Proxorov M., 1997; 1434]. K. Risqulovning fikriga ko'ra, kompetensiya tushunchasi u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan sotsiologiyistik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa, shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir [Risqulova K., 2017; 22]. N.Muslimov fikriga ko'ra, "kompetensiya – qobiliyat demakdir", biroq u kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga ham xizmat qiladi, deb ko'rsatadi [Muslimov N., 2014; 101]. J.Turmatov bu borada shunday yozadi: "Kompetensiya" – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning amaliyotda samarali qo'llanilishi, "kompetentlik" esa, muayyan bir faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqat [Turmatov J., 2019; 17]. F.Alimovning ta'kidlashicha, "kompetensiya" ma'lum soha bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, shu sohaga oid bilimlarga ega bo'lish, omilkorlik, layoqatlilikni o'z ichiga oladi [Alimov F., 2018; 14]. F.Rabbimovaga ko'ra, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyatidir [Rabbimova F., 2019; 14].

X.Mamatqlovning fikriga ko'ra, "kompetensiya" shaxsiy xususiyatlar va kasbiy tayyorgarlikni o'zida mujassamlashtiradi. Kompetentlik o'z ichiga kompetensiyalar



tizimini qamrab olib, shaxsning amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etishi va ularning ratsional yechimini izlab topishda o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liq [Mamatqulov X., 2017; 26]. Yo. Najmiddinovaning qarashlariga ko‘ra, kompetensiya shaxsning vakolat doirasini, kompetentlik esa uning xususiyatini xarakterlaydi [Najmiddinova Yo., 2019; 26]. A.J. Allambergenovning ta’kidlashicha, kompetentlik, bu – biror shaxsga mazkur jamiyat uchun muhim bo‘lgan vazifalarni (masalalarni) hal etishga qaratilgan harakatlarining samaradorligini (natijaviyligini) baholash natijasida beriladigan ta’rifdir [Allambergenov A., 2020; 12].

“Tushunchalar va atamalar lug‘ati”da “kompetentlik” so‘ziga axborot makoni sharoitida insonning o‘z g‘oyalarini har jihatdan va ko‘p tomonlama anglashi hamda amalga oshirish qobiliyati, degan ta’rif berilgan.

S.I. Ojegov lug‘atida “kompetentlik” “bilim, xabardorlik va obro‘” degan ma’noda izohlangan [Ojegov S.I., 1986; 796].

G.Asilova ta’rifida kompetensiya – ma’lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi; kompetentlik esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir [Asilova G., 2016; 76].

A.Mahmudov fikricha, “kompetentlik, bu – bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi integrativ bilim, ko‘nikma va malakalarning alohida qirralarini (kognitiv komponent) hamda ijtimoiy muhim sifatlarini (qabul etilayotgan qarorga tayyorlik, layoqatlilik va mas’uliyatlilik) qamrab olgan shaxsning integrativ sifatidir (ijtimoiy psixologik komponent)” [Mahmudov A., 2017; 16].

D.N. Ushakov tahriri ostidagi izohli lug‘atda “kompetensiya” so‘zi “xabardorlik va obro‘”, har qanday sohadagi bilim, malaka sifatida sharhlansa, “kompetensiya” atamasi esa “shaxs vakolatiga ega bo‘lgan masalalar, hodisalar majmui, bilim, tajriba” hamda “qonun doirasidagi vakolat” deb ta’riflanadi [Ushakov D., 1935; 560].

Har ikki tushunchaning mazmun-mohiyatiga I.G. Agapov, V.V. Guzeev, A.N. Daxin, E.F. Zeer, V.N. Zimin, I.A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, L. M. Mitina, Dj.Ranen, G.K. Selevko, A.V. Xutorskiy, S.E. Shishov, T.I. Shulgi va boshqalar ham o‘z ilmiy izlanishlarida asosiy e’tiborni qaratishgan.

E.F. Zeerning kompetensiyasi – insondagi bilim, ko‘nikma, tajribaning ijtimoiy vaziyat, o‘ziga xos real faoliyat bilan integratsiyalashuvi orqali emas, balki to‘plangan tajribaning amalda qo‘llay bilish qobiliyatining mavjudligini nazarda tutadi [Zeer E., 2005; 25-30].

S.V. Trishina va A.V. Xutorskiy ta’rifiga ko‘ra, kompetensiya, bu – mutaxassisning ta’lim sohasidagi tayyorgarligi uchun tegishli ijtimoiy talab (me’yor) bo‘lib, uning ma’lum bir sohada yuqori pog‘onaga erishishi uchun zarur bo‘lgan faoliyat ekanligini nazarda tutadi. Ularning fikriga ko‘ra, kompetensiyadan farqli o‘laroq, kompetentlik, bu – sub’yektning tegishli tajribaga ega bo‘lishi, shu jumladan, uning shaxsiy va biror-bir predmetga bo‘lgan munosabatining allaqachon shakllangan sifatleri majmui ekanligidir [Trishina S., Xutorskiy A., 2004].

Yu.V. Frolov va D.A. Maxotinning bayon qilishicha, kompetensiya shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyati sohasi bilan bog‘liq jarayonni yaxshi tushunadigan va biror

ishni bajarishga tayyor bo'lgan malakaviy vakolatidir. Shu bilan birga, kompetensiya shaxsiy fazilatlarning yaxlit tasnifi, insonning har qanday muammoli vaziyatlarda yo'l topa olish qobiliyatini mujassam etgan kasbiy malakasi majmui hamdir [Frolov Yu., Maxotin D., 2004; 34-41].

V.D. Shadrikovning so'zlariga ko'ra, "kompetensiya" atamasi insonning yillar davomida to'plagan bilimlari natijasidir. Kompetentlik – muayyan bilim, ko'nikma va hayotiy tajribaga ega bo'lish, biror narsaga munosabat bildirish, to'g'ri va aniq qaror qabul qilish imkonini beruvchi zaruratdir [Shadrikov V., 2004; 26-34].

I.A. Zimnyaya bu ikki tushunchani o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib, tubdan ajratadi va asoslaydi. "Kompetentlik" tushunchasi kompetensiyaga qaraganda ancha kengroq. U kognitiv bilimlar bilan bir qatorda ilhom beruvchi, munosabat va tartibga soluvchi komponentlarni ham o'z ichiga oladi. Kompetensiya, bu – "dastur" bo'lib, uning asosida kompetentlik rivojlanadi. I.A. Zimnyaya ushbu tushunchalar mohiyatini qisqa va lo'nda bayon etadi: "Kompetensiya – yangi shakllangan ichki, potensial, yashirin psixologik bilimlar, g'oyalar, harakatlar dasturi, keyinchalik insonning muloqotida namoyon bo'luvchi qadriyatlar va munosabatlar tizimidir. Kompetentlik – shaxsning ijtimoiy faolligida zarur bo'lgan bilimga asoslangan, intellektual, shaxsiy fazilatlar yig'indisi va ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasidir" [Zimnyaya I., 2003; 34–42]. Inson va undagi shaxsiy fazilatlar rivojlanishini o'rganuvchi akmeologiya fani doirasida kasbiy malakaning quyidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan:

- gnostik (kognitiv) – kerakli kasbiy bilimlarning mavjudligini aks ettiradi;
- tartibga soluvchi – sohaviy muammolarni hal qilish uchun mavjud kasbiy bilimlardan foydalanishga imkon beradi;
- refleksiv – yuqori turuvchilarning tan olinishi tufayli muayyan tarzda harakat qilish huquqini beradi;
- normativ – mehnat faoliyatiga oid vazifalarni aks ettiradi;
- kommunikativ – amaliy faoliyatni tashkillashtirish uchun munosabatlarni o'rnatish imkoniyatini belgilaydi [Derkach A., Zazkin V., 2003; 256].

Kasbiy kompetensiya muayyan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hamda munosabatlarini maxsus darajasidagi zaruriy bilimlarda aks ettiradi. Umuman kasbiy faoliyatda mutaxassislarning turli darajadagi munosabatlari bo'lishi mumkin. O'qituvchi va talaba, ota-onalar va hamkasblar, shuningdek, ta'lim muassasasi rahbariyati o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatilishi kerak. Munosabatning bu turiga kommunikativ kompetensiya deyiladi. A.Ashurovning fikricha, kommunikativ kompetensiya, bu – muloqot qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va ko'nikmalar, biznes aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o'z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir [Ashurov A., 2020; 76–83]. Bulekbaeva Sholpan Buxarbaevna "kommunikativ kompetensiya" bilimlarni nazariy anglashdan yuksak nutq madaniyatini egallash darajasigacha yetkazish, bilim, ko'nikma, malakalarni nutqiy faoliyatda qo'llash qobiliyati deb ta'rif beradi [Bulekbaeva Sh., 2019; 11].

Pedagogik faoliyat muammolarini o'rganayotgan olimlar kompetensiyani mansabdor shaxsning imkoniyatlari, uning malakasi (bilim va tajribasi) deb tushunadilar. Bu unga muayyan vaziyatlarda bilim va ko'nikmalar, orttirilgan

tajribalar asosida yo‘l ko‘rsatish, ishtirok etish, muammolarni hal qilish imkonini beradi. V.Slastenin va boshqalar pedagogik kompetensiya o‘qituvchining pedagogik faoliyatini amalga oshirishi uchun nazariy va amaliy jihatdan kerakligini ham alohida ta’kidlaydi [Slastenin V.A.].

Yu. Frolov va D. Maxotin tomonidan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari doirasida shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyat mazmuni va shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi tahlil qilingan [Frolov Yu., Maxotin D., 2004; 34–41].

S. Salimova ta’rifiga ko‘ra, kompetensiya – insonning shaxsiy xususiyati, individning turli vazifalarni bajarishga tayyorligi bo‘lib, faoliyat davomida shakllanadi va shu faoliyatga bo‘lgan qadriyat-mazmun munosabatini shakllantiradi. Kompetensiya – ish beruvchi uchun tushunarli bo‘lgan va bitiruvchining kasbiy faoliyatini tavsiflovchi kategoriyadir va u OTMni bitirgandan keyin ish joyida amalga oshadi. Kompetensiyalarning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud: “bilimlardan iborat qism” (akademik sohadagi bilimlar, bilish va tushunish qobiliyati); “qadriyatlardan iborat qism” (shaxsning qadriyatlari va kasbiy vazifalarni bajarishga motivatsiyasi); “faoliyatdan iborat qism” (bilimlarni muayyan vaziyatga nisbatan amaliy va tezkor qo‘llash) [Salimova S., 2021; 11].

A.Verbitskiy va O.Larionova “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini ajratish uchun professional faoliyat sifatini belgilaydigan shartlarning ob’ektivligi va sub’ektivligini asos sifatida tanlashni taklif qiladilar. Ular ob’ektiv shartlarni “kompetensiya” deb atashadi va qonunlar, qoidalar, farmonlar, buyruqlar, ko‘rsatmalar kabi rasmiy hujjatlarda aks ettirilgan xodimning faoliyat sohasi uning huquqlari, burchlari va majburiyatlari bilan mukammalligini tasdiqlaydilar. Sub’ektiv shartlarni “kompetentlik” deb nomlash barobarida unga professional motivlar, insoniy fazilatlar, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalarini birlashtiruvchi omil sifatida qaraydilar [Verbitskiy A., Larionova O., 2009; 336].

Yuqorida ta’kidlagan bir qancha olimlarning fikrlari, yondashuv va qarashlariga tayanib, ular asosida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mohiyatini, o‘ziga xos jihatlarini quyidagicha izohlaymiz.

1-jadval.

№	Kompetentlik	Kompetentsiya
1.	xodimning shaxsiy xususiyatlari	Faoliyat xususiyatlari
2.	faoliyatda zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar	muayyan faoliyat doirasida shaxsning vakolatlari
3.	shaxs faoliyatining uni tartibga soluvchi talablarga muvofiqlik darajasi	faoliyat uchun belgilangan umumiy talab (me’yor)
4.	shaxsiy faoliyatga tayyorgarlik	faoliyatning me’yoriy jihatdan belgilangan tarkibi
5.	faoliyatga tayyorgarlik natijasi	faoliyatga tayyorgarlik mazmuni
6.	faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini haqiqiy amalga oshirish	faoliyatdagi shaxsiy imkoniyatlar
7.	Sub’ektiv	Ob’ektiv



I.A. Zimnyaya kompetentlikning tarkibiy tuzilishini quyidagilarga ajratadi: a) bilim va ko'nikmalardan ko'ra kengroq va ularni o'z ichiga oladi; b) xulq-atvorning namoyon bo'lishini emotsional tartibga solishni o'z ichiga oladi; v) mazmuni uni amalga oshirish sub'yekti uchun ahamiyatli; d) shaxsning faolligi, xulq-atvori, bilim, ko'nikma va malakasining faol namoyon bo'lishi, ularni har qanday vaziyatda amalga oshirish imkoniyati sifatida doimiy tayyorligi bilan tavsiflanadi [Zimnyaya I., 2006].

Bir so'z bilan aytganda, kompetensiya tarkibida bilim, ko'nikma, malaka faoliyatini bajarish usullari, ularni amalda qo'llash tajribasi, samarali qaror qabul qilish, oqilona harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydigan fikrlash xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Uning asosiy mezoni ob'yektlar va jarayonlarning muayyan doirasiga nisbatan o'rnatilgan va ularga nisbatan samarali harakat qilish zaruriyati hisoblanadi [Xutorskiy A.V., 2003].

## METODLAR

“Kompetentlik” va “kompetensiya” ta'riflarini o'rganib, tadqiqotimizning asosiy qismi hisoblangan talabalar lisoniy muloqotining sotsiopragmatik tamoyillariga to'xtalamiz.

Talabalarning xorijiy mamlakatda bo'lishdan asosiy maqsadi – professional ta'lim olishdir. Bu maqsadga erishishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning boshqa mamlakat ijtimoiy-madaniy sharoitiga qanchalik muvaffaqiyatli moslasha olishlariga bog'liq. Ular duch keladigan qiyinchiliklar nafaqat madaniy tafovutlarga, balki ayrim ijtimoiy qoidalarni yaxshi bilmasliklariga borib taqaladi. Xususan, o'sha mamlakat tilini bilish darajasi ham har qanday muammoning yechimini topishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Grammatik qoidalarni bilish, adabiy til me'yorlariga rioya etish suhbatdosh bilan munosabatga kirishish uchun unchalik kerak emas, degan qarash muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, turli madaniyat vakillari o'rtasidagi lisoniy muloqotning sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish quyidagi jihatlarga bog'liq:

- maqto'v va xushmuomalalikni ifodalash shakllari (Polsha va Buyuk Britaniya misolida (V. Levandovska-Tomashchik, 1989);

- ishbilarmon doiralar vakillari o'rtasidagi ziddiyatli muammolarni hal qilish usullari (Xitoy va Buyuk Britaniya misolida (N. Spenser-Oatey, J. Xing, 2000);

- asossiz ayblovlarga munosabat (Yaponiya va Buyuk Britaniya misolida) (N. Tanaka, N. Spenser-Oatey, E. Krey, 2000);

- muloqotda o'zaro tushunishga erishish (Germaniya va Xitoy misolida) (S. Gtingner, 2000).

Olimlarning e'tiborini sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklarning paydo bo'lishi va ularni bartaraf etishning nazariy yechimi o'ziga jalb qilib kelgan. Masalan, telefon suhbatlari uch bosqichda amalga oshiriladi. T. Pavlidouning ta'kidlashicha, telefon orqali muloqot suhbatning boshlanishi, asosiy qismi, tugallanishi bilan kechadi. Bu jarayonning o'ziga xosligini aniqlash maqsadida olim yunon va nemis

madaniyati vakillari o'rtasidagi telefon suhbatlarini o'rganib chiqqan. Ma'lum bo'lishicha, yunonlar telefon qo'ng'irog'iga "ha" (yunoncha "ne") deb javob berishsa, nemislar odatda, o'z familiyasini aytish orqali muloqotga kirishadi. Agar yunonlarning salomlashishi cho'zilib ketsa, nemislar tezda asosiy maqsadga o'tishga harakat qilishadi. Telefon suhbatining tugashi ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi [Pavlidou T., 2000].

Shuni ta'kidlash kerakki, sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklar olimlar tomonidan alohida mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan, balki madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari sohasidagi tadqiqotlarning bir qismi sifatida olib qaralgan. Bu esa talabalarda lisoniy muloqotining sotsiopragmatik kompetensiyasini ko'rib chiqishga hech qanday yondashuvning yo'qligi bilan ham izohlanishi mumkin.

Til pedagogikasida an'anaviy ravishda lingvistik omilga alohida e'tibor qaratiladi. Talabani o'zga mamlakat tilining lisoniy shakllaridan noto'g'ri foydalanishi muloqot jarayonida muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, lisoniy omil pragmatolingvistikaga ko'proq bog'liq, u sotsiopragmatika bilan bir qatorda pragmatikaning bir qismi hisoblanadi [Leech G., 1983; Tomas J., 1983; Xarlou L., 1990]. Shu sababli ushbu tadqiqot doirasida olimlarda sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklarning bevosita manbalari bo'lgan "ijtimoiy" omillar katta qiziqish uyg'otib kelgan.

Ko'pgina olimlar o'z tadqiqotlarida [Tomas J., 1983; Xolms J., Braun D., 1987; Xarlou L., 1990; Kasper G., 1997) sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklarning paydo bo'lishi ijtimoiy va madaniy bilimlarning yetishmasligidan kelib chiqqanligini qayd etadilar. Chunki ko'pincha, talabalarning o'sha mamlakat qadriyatlarini bilmasligi bunga sabab bo'ladi. M.Kavate-Mirzejevska (2003) o'z tadqiqotida sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklar yuzaga kelishiga ijtimoiy-madaniy omilning ta'sirini aniq ko'rsatib berdi. Muallif Polshada keksa ayollarning begonalarga nisbatan xatti-harakatlarini misol qilib keltiradi. Ayniqsa, ular sovuq havoda boshyalang va yupun kiyingan bolalarni ko'rishsa, albatta onalariga tanbeh berishadi [Kavate-Mirzejevska M., 2003]. Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy omil sanalgan mahalliy va xorijiy madaniyat o'rtasidagi tafovut salbiy munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Biroq, sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklar faqat lisoniy shakllar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlar, ya'ni lingvistik va sotsial-madaniy omillar haqidagi bilimlarning yetishmasligi bilan chegaralanib qolmaydi. Ko'pincha, talabalar o'rganayotgan mamlakatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. Masalan, yaponiyalik talabalarning amerikalik professorlarga murojaat qilishidagi o'ziga xos xususiyatlar haqida N.Tanaka o'z tadqiqotida misol keltirgan. Uning ta'kidlashicha, professorni ism-sharifi bilan chaqirish madaniy belgi sanaladi. Yaponiyada esa talabalar, odatda, professorning familiyasini "professor" so'zidan keyin ishlatishadi [Tanaka N., 2000].

Sotsiopragmatik tamoyillarni aks ettiruvchi quyidagi to'rtta vaziyatli guruhni belgilaymiz:

- 1) madaniyatlararo o'zaro ta'sir;

- 2) muloqot o'rnatish;
- 3) ziddiyatni bartaraf etish;
- 4) muammolarni bartaraf etish.

Bu holatlar sotsiopragsmatik muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Talabalarning lisoniy muloqotidagi sotsiopragsmatik kompetensiyani aniqlashda G.E. Belitskayaning so'zlariga tayanadigan bo'lsak, ijtimoiy kompetensiya, bu – shaxs ijtimoiy faolligining eng yuqori darajasini – faoliyat, xulq-atvor, muloqot, tafakkur jarayonida erishilgan ijtimoiy muammolar, yo'nalishlar va qadriyatlarni tushunishni uyg'unlashtirish orqali erishiladigan konsepsiyani o'z ichiga oladigan yangi tushuncha, degan xulosaga kelishimiz mumkin [Belitskaya G., 1995; 42–57]. M.Qodirova fikrlariga ko'ra, nazariy jihatidan kompetensiya – shaxsning muayyan sohada samarali ishlashi uchun zarur va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli layoqatlari va xususiyatlari yig'indisidir. Kompetensiya natijadorlikni ta'minlaydigan algoritmnining inson imkoniyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kompetensiya – insonning mutaxassis sifatidagi maqsadga yo'naltirilgan va uning imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan harakatlari, faoliyatidir. Insonning bilish faoliyati natijalarini tizimlashtirish, uning tushuncha va g'oyalar ko'rinishida mavjud bo'lgan bilimlardan farqli o'laroq, kompetensiya faqat amalda aniqlanadi. Umuman olganda, kompetensiya mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llashdir, yetishmayotgan bilimlarni ta'minlash qobiliyati, o'z imkoniyatlarini namoyon etish bilan xarakterlanadigan zarur bilim, malaka, ko'nikmalarning hosilasidir [Qodirova M., 2021; 76–85].

Yu.Mel esa to'g'ri qaror qabul qilish, o'z his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunishga intilish, yoqimsiz his-tuyg'ular va o'z-o'zidan shubhalanishni unutish, maqsadga qanday qilib eng samarali tarzda erishish mumkinligini tasavvur qilish, istaklarni to'g'ri tushunish qobiliyatini o'zida aks etgan ijtimoiy barkamol shaxsni tavsiflaydi. Ijtimoiy tuzilmalar va nodavlat-notijorat institutlar tomonidan jamiyatning har qanday sohadagi muammolari tahlil qilinadi, odamlarning manfaatlari, umidlari, istaklari va huquqlari hisobga olinadi. Sotsiopragsmatik kompetensiya o'zgalarning huquq va majburiyatlarini hurmat qilishni nazarda tutishi bilan ahamiyatli ekanligi qayd etiladi [Mel Yu., 1995; 61–68].

E.V. Koblyanskayaning fikricha, sotsiopragsmatik kompetensiya, bu – “men” va jamiyat munosabatlarini tushunish, to'g'ri ijtimoiy ko'rsatmalarni tanlash, o'z faoliyatini ushbu ko'rsatmalarga muvofiq tashkil etish qobiliyati deganidir. Olima sotsiopragsmatik kompetensiyani moslashuvchan hodisa sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi va bu mexanizmning ishlashi ijtimoiy va psixologik tayyorgarlikni ta'minlashini ta'kidlaydi. Boshqacha aytganda, sotsiopragsmatik kompetensiya shaxsning unga berilgan ijtimoiy mavqeini samarali o'rnatishga moslashish darajasini belgilaydi [Koblyanskaya E., 1995; 16].

V.V. Svetkovning fikricha, sotsiopragsmatik kompetensiyani shaxsning jamiyat hayotida tutgan o'rnidan bilish mumkin. Uning so'zlariga ko'ra, sotsiopragsmatik kompetensiya, bu – shaxsning jamiyat bilan faol muloqot qilishi, turli guruhlar va odamlar bilan aloqa o'rnatishi, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan

loyihalarda ishtirok etishi va har xil vazifalarni bajarishiga imkon beradigan, shaxsning yaxlit sifatini aniqlovchi ijtimoiy hodisadir [Svetkov V., 2002; 155].

V.N. Kunitsinaning qayd etishicha, sotsiopragmatik kompetensiya ijtimoiy voqelik, murakkab ijtimoiy va o'zaro ta'sir qilish ko'nikmalari tizimi, turli vaziyatlarda xulq-atvor qoidalariga rioya etish va bu jarayonga tez moslashish hamda to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi [Kunitsina V., 2012;15].

T.I. Samsonova sotsiopragmatik kompetensiyani shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadigan va ijtimoiy muhit bilan samarali o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradigan bilim, ko'nikmalarni o'z ichiga olgan yaxlit ta'lim deb ta'riflaydi. Jamiyatda sodir bo'layotgan turli ijtimoiy jarayonlar, milliy, siyosiy, diniy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa sohalaridagi umuminsoniy qadriyatlar, dunyoda tan olingan normalar haqidagi bilimlar sotsiopragmatik kompetensiyani ijtimoiy sub'yekt sifatida qabul qilishni taqozo etadi [Samsonova T.I., 2006;193].

T.Isoqova sotsiopragmatik kompetensiyani jamiyatda yuzaga keladigan qiyin vaziyatlardagi konstruktiv xatti-harakatlar majmui deb biladi. Uning fikricha, ijtimoiy mas'uliyat, "men"ning, "boshqasi"ning qiymati va hayotning mazmunlilikida aks etadi.

Shu nuqtai nazardan, "pragmatika" atamasining shakllanishiga e'tibor qaratamiz. "Pragmatika" yunoncha pragmatísos va lotincha pragmátisus – amaliy bo'lish so'zidan olingan. Ch.Morris pragmatikani semiotika (belgilar haqidagi fan) – semantika va sintaktis bilan bir qatorda "belgilarning ulardan foydalanadigan odamlarning munosabatlarini o'rganish" fanidan ajratib ko'rsatgan [Morris Ch., "Belgilar nazariyasi", 1938].

Muayyan muloqot qoidalari mavjudligi haqidagi g'oyani N.Grays [Grays N., 1975] ilgari surdi. Keyinchalik Grays "hamkorlik tamoyili"ni "xushmuomalalik tamoyili" bilan to'ldirdi. Ya'ni, hamkorlik tamoyiliga amal qilib, muloqot ishtirokchilari ishonchli ma'lumot beradi, o'z nutqini mantiqan shakllantiradi, mavzudan chetga chiqmaydi [Grays N., 1975]. Biroq, turli madaniyatlardagi bu tamoyillarning farqi tadqiqotchilar uchun madaniyatlararo munosabatlarga oid savollar tug'dirdi va keyinchalik pragmatikani lingvopragmatika, sotsiopragmatika, kontrastpragmatika, madaniyatlararo pragmatika, tillararo pragmatika va tarixiy pragmatika kabi ilmiy sohalariga bo'linishiga olib keldi.

D.Kristal "Ingliz tilining Kembrij ensiklopediyasi" [Kristal D., 1995] deb nomlangan fundamental tadqiqotida pragmatikani "tilni foydalanuvchilar nuqtai nazaridan o'rganish" deb baholaydi. Xususan, lisoniy vositalarni tanlash, tilni ijtimoiy kontekstda ishlatishga cheklovlar va keyinchalik muloqot ishtirokchilariga ta'sirini o'rganish dolzarbligicha qolgan bir paytda [Kristal D., 1995; 240], pragmatikani muloqot jarayonini ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda o'rganishga yo'naltirishni davrning o'zi taqozo etadi.

Demak, pragmalingvistik komponent nutq harakatlari va pragmatik strategiyalarni belgilaydi [Blum-Kulka S., Xaus J., Kasper G., 1989]. Sotsiopragmatik komponent o'z navbatida, ijtimoiy kontekstni tushunishdan iborat bo'lgan jihatni aks ettiradi.

Shunday qilib, tilning ishlashi uchun ijtimoiy shartlarsiz grammatika va lug'atni

bilish xorijiy talabalar o'rtasidagi muloqot jarayonida lingvistik jihatdan ijtimoiy-madaniy kontekstga mos bo'lmagan lingvistik shakllardan foydalanish natijasida sotsiopragmatik xatolar paydo bo'lishiga olib keladi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pragmatikaning bu jihatini shakllantirish muammosi ikkinchi chet tilini o'qitishga oid tadqiqolarda faol o'rganiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda chet tilini kommunikativ kompetensiya orqali o'rgatish samarali natija bermoqda.

Sotsiopragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismlari chet tilini o'rgatishning kommunikativ kompetensiyasi tarkibiy qismlari sifatida sotsiolingvistik, pragmatik, ijtimoiy va sotsial-madaniy kompetensiyalar tarkibiy qismlarining mazmunida o'z aksini topdi (2 -jadvalga qarang).

2-jadval.

<b>Muallif</b>	<b>Kommunikativ kompetensiya komponentlari</b>
Canale M., Swain M. (1980)	sotsiolingvistik
Savignon S.J. (1983)	sotsiolingvistik
Bachman L. (1990)	pragmatik (illokutiv, sotsiolingvistik)
CEFR (2007)	pragmatik, sotsiolingvistik
Bim I.L., Safonova V.V. (1996)	kompensator, sotsial –madaniy
Milrud R.P. (2001)	pragmatik

Ishlab chiqilgan va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi boshqa modelda [Savignon S., 1983], sotsiopragmatik komponent sotsiolingvistik kompetensiya doirasida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, S.Savignon “muloqot ishtirokchilarining tili va muloqotni amalga oshirishda bajaradigan funksiyasi hisobga olinishi kerakligini” ta'kidlaydi [Savignon S., 1983].

Mustaqil komponent sifatida, pragmatik kompetensiya L.Baxman (1990) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda alohida o'rganilgan. Muallif “kommunikativ til mahorati” atamasini ishlatgan va pragmatik kompetensiyani lingvistik komponent sifatida ko'rib chiqqan. Shu bilan birga, pragmatik kompetensiyaga illokutsion (nutq harakatlari) va sotsiolingvistik (tilni muayyan kontekstda ishlatish) tamoyillar kirishini ta'kidlagan [Baxman L., 1990].

Zamonaviy Yevropa lingvistik ta'limotida kommunikativ kompetensiya uch komponentli tarkib (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik) bilan ifodalanadi (The Common European Framework of Reference for Languages, CEFR, 2007). Muloqot jarayoni ijtimoiy-madaniy kontekstda (sotsiolingvistik kompetensiya) ma'lum maqsadlarga (pragmatik kompetensiya) erishish uchun tilning leksik va grammatik shakllaridan (lingvistik kompetensiya) foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, sotsiopragmatik komponent sotsiolingvistik (ijtimoiy munosabatlar, xushmuomalalik qoidalari, dialektlar va boshqalar) va pragmatik (aniq maqsadga erishish strategiyasi) komponentlarning birga ishlashi bilan izohlanadi.

Muvaffaqiyatli kommunikativ ta'sirni belgilovchi omillardan biri sifatida pragmatik kompetensiyani ajratish R.P. Milrud tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modelida keltirilgan. Muallifning so'zlariga ko'ra,



kommunikativ vaziyatda kommunikativ komponent suhbat jarayonida muloqotga kiruvchilarning bir-biriga o‘zaro munosib ta’sir ko‘rsatish uchun maxsus lisoniy vositalardan foydalanishi bilan bog‘liq [Milrud R., 2002; 122]. A.Qo‘ldashev va R. Odinaevning fikriga ko‘ra, kompetensiya, bu – kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsul, mutaxassis tomonidan amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amalga bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo‘lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezonini va u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi [Qo‘ldashev A., Odinaev R., 2015; 6].

## XULOSA

Yuqoridagilarga asoslanib, talabalar lisoniy muloqoti sotsiopragsmatik kompetensiyasining o‘ziga xos ta’rifini ishlab chiqamiz. Talabalar lisoniy muloqotining sotsiopragsmatik kompetensiyasi, bu – bilimlar, munosabatlar va ko‘nikmalarning kombinatsiyasi bo‘lib, ularga madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy ta’sirini samarali va xavfsiz amalga oshirish, o‘z mamlakatining ijtimoiy-madaniy kontekstiga muvofiq o‘z maqsadlariga moslashtirish imkonini beradi.

Bu ta’rif, shuningdek, talabalar lisoniy muloqoti sotsiopragsmatik kompetensiyasining tarkibi haqidagi tushunchamizni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun biz V.A. Bolotov va V.V. Serikov qarashlaridan kelib chiqib, talabalar lisoniy muloqoti sotsiopragsmatik kompetensiyasining kognitiv (bilim), affektiv (munosabatlar) va amaliy (ko‘nikmalar) kabi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov, F.Sh. (2018). *Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini rivojlantirish* (nofilologik fakultetlar misolida) (14-b.). Toshkent.
2. Allamberganova, A.J. (2020). *Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida kasbiy texnologik kompetentlikni rivojlantirish* (12-b.). Nukus.
3. Ashurov, A.A. (2020). Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmun mohiyati. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 1(30), 76–83.
4. Asilova, G. (2016). *Bojxona va soliq yo‘nalishlari rus guruhlar talabalarini davlat tilida kasbiy muloqot yuritishga o‘rgatish* (76-b.). Toshkent.
5. Beliskaya, G.E. (1995). *Sotsialnaya kompetentnost* (ss.42-57).
6. Bulibekova, Sh.B. (2019). *Ona tilini davlat tili bilan kommunikativ kognitiv asosda qiyosiy o‘rgatish* (Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) (11-b.). Samarqand.
7. Daminov, O.O. (2020). *Kasb ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish* (13-b.). Toshkent.
8. Derkach, A., Zazikin, V. (2003). *Akmeologiya* (256 s.). Sankt-Peterburg.
9. Frolov, Y.V., Maxotin, D.A. (2004). Kompetentnostnaya model kak osnova otsenki kachestva podgotovki spsialistov. *Visshee obrazovaniye segodnya*, 8, 34-41.
10. Hamdova, M.T. (2020). *Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish* (11-b.). Toshkent.
11. Koblyanskaya, Y.V. (1995). *Psixologicheskii aspekti sotsialnoy kompetentnost* (s.16.). Sankt-Peterburg.
12. Krasnokyskaya, S.N. (2005). *Analiz sostoyaniya problem sotsialnoy kompetentnosti v otechestvennoy i zarubejnoj literature* (s. 34).

13. Lebedev, S.A. (2004). *Filosofiya nauki: Slovar osnovnix terminov 320* (157 s.). Moskva: Akademicheskiiy proekt.
14. Mamatqulov, X.A. (2017). *Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish* (17-, 26-b.). Toshkent.
15. Maxmudov, X.A. (2017). *Bo'lajak magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta'minotini takomillashtirish* (16-b.). Toshkent.
16. Mel, Y. (1995). Sotsialnaya kompetentnost kak sel psixoterapiya: problem obraza "Ya" v situatsii pereloma. *Voprosii psixologii*, 5, 61-68.
17. Milrud, R.P. (2002). *Teoriya obucheniya yaziku* (s.122).
18. Muslimov, N.A., Qo'ysinov, O.A. (2014). *Metodik qo'llanma* (101-b.). Toshkent.
19. Nabiev, A.N., Jalolov, J.J. (2020). *Professional ta'lim tizimida islohotlar: Malaka oshirish ta'lim turida innovatsion g'oyalar* (228-230-b.). Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent.
20. Najmiddinova, Y.R. (2019). *Kollej o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish* (26-b.). Toshkent.
21. Narziyeva, N.N. (2019). *Umumta'lim maktab o'quvchilarida tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko'nikmalrini shakllantirish* (15-b.). Samarqand.
22. Ojegov, S. I. (1986). *Slovar russkogo yazika* (796 s.). Moskva.
23. Omonov, P.X. (2021). *Ingliz tilini o'qitishda talabalar ijtimoiy-ma'daniy kompetensiyasini aytentik materiallar vositasida rivojlantirish* (14-b.). Toshkent.
24. Proxorov, A.M. (1997). *Bolshey entsiklopedicheskiy slovar* (1434 s.). Moskva.
25. Qo'ldoshev, A.T., Odinayev, R.Q. (2015). *Pedagogika, psixologiya, ta'lim va tarbiya kasbiy kompetentlikni professor o'qituvchilarda namoyon bo'lishining pedagogik-psixologik mohiyati* (6-b.). Ta'lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o'rni mavzusidagi yosh olimlar, magistrant va talabalarning an'anaviy XII respublika ilmiy-konferensiya materiallari, I qism. Toshkent.
26. Qodirova, M.T. (2021). Ta'lim muassasasi arab tili o'qituvchisi kompetentsiya muammosining ilmiy nazariy asoslari (76-85-b.). *Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology*, 4(3), 76-85.
27. Rabbimova, F.T. (2019). *Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish* (14-b.). Toshkent.
28. Risqulova, K.Dj. (2017). *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologiyistik kompetentligini shakllantirish tizimi* (22-b.). Toshkent.
29. Robotova, A.S., Leontyeva, T.V., Shaposhnikova, I.G. (2006). *Vvedeniye v pedagogicheskuyu deyatel'nost* (200 s.). Moskva: Akademiya.
30. Salimova, S.F. (2021). *Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalari shakllanganlik darajasini baholashning metodik tizimini takomillashtirish* (11-b.). Chirchiq.
31. Samsonova, T.I. (2006). *Sotsialnaya kompetentnost podrostkov i texnologii yeyo formirovaniya* (193 s.). Sankt-Peterburg.
32. Shadrikov, V.D. (2009). *Novaya model spetsialista: innovatsionnaya podgotovka i kompetentnostiy podxod* (ss. 26-34). Sankt-Peterburg.
33. Sharipova, Sh.S. (2020). *Innovatsion ta'lim muhiti rivojlantiruvchi treninglar orqali ixtisoslik fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini oshirish* (11-b.) Toshkent.
34. Shishov, S.Y., Agapov, I.G. (2002). *Kompetentnostiy podxod k obrazovaniyu: prixtot ili neobxodimos* (ss. 58-62.). Tomsk.
35. Suleymonova, N.K. (2020). *Videokontent orqali bo'lajak nemis tili o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish* (12-b.). Toshkent.
36. Trishina, S.V., Xutorskoy, A.V. (2004). *Informatsionnaya kompetentnost spetsialista v sisteme dopolnitelnogo professionalnogo obrazovaniya, internet journal*.
37. Tsetkov, V.V. (2002). *Formirovaniye sotsialnoy kompetentnosti selskix shkolnikov* (155 s.). Velikiy Novgorod.
38. Turmatov, J.R. (2009). *Kasb ta'limi o'qituvchilarida tadqiqotchilik kompetentsiyalarini*

- shakllantirish metodikasining didaktik ta'minotini takomillashtirish* (17-b). Toshkent.
39. Urazova, M.B. (2015). *Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish* (12-b). Toshkent.
  40. Ushakova, D.N. (1935). *Tolkoviy slovar russkogo yazika* (560 s.). Moskva: Sovetskaya Ensiklopediya.
  41. Vahobov, M.M. (2007). *Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etishda-zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida* (5-b). Toshkent.
  42. Verbitskiy, A.A. Larionova, O.G. (2009). *Lichnostniy kompetentnostniy podxodi v obrazovanii: problem integratsii* (336 s.). Moskva: Logos.
  43. Xutorskoy, A.V. (2002). *Klyucheviy kompetentsii i obrazovaniya standarti*.
  44. Zeyer, E.F., Pavlova, A.M., Simanyuk, E.E. (2005). *Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: kompetentnostniy podxod* (ss. 25-30, 48). Moskva.
  45. Zimnyaya, I.A. (2006). *Obshaya kultura i sotsialno-professionalnaya kompetentnost cheloveka*.
  46. Zimnyaya, I.A. (2003). *Klyucheviy kompetentsis-novaya paradigm rezultata obrazovaniya obrazovaniya. Visshee obrazovaniya segodnya*, 5, 34-35. Moskva.

## REFERENCES

1. Alimov, F.Sh. (2018). *Development of writing competence in English* (on the example of non-philological faculties) (p. 14). Tashkent.
2. Allamberganova, A.J. (2020). *Development of professional technological competence in general secondary school students* (p. 12). Nukus.
3. Ashurov, A.A. (2020). The concept of communicative competence and its content. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 1(30), 76-83.
4. Asilova, G. (2016). *Training of students of Russian groups in customs and taxation to communicate professionally in the state language* (p. 76). Tashkent.
5. Beliskaya, G.E. (1995). *Social competence* (pp. 42-57).
6. Bulibekova, Sh.B. (2019). *Comparative teaching of the mother tongue with the state language on a communicative cognitive basis* (on the example of schools with Kazakh language of instruction) (p. 11). Samarkand.
7. Daminov, O.O. (2020). *Improving the methodology of formation of professional competencies in the training of vocational teachers* (p. 13). Tashkent.
8. Derkach, A., Zazikin, V. (2003). *Acmelogy* (256 p.). Saint-Petersburg.
9. Frolov, Y.V., Maxotin, D.A. (2004). Competence model as a basis for assessing the quality of training. *Today's Higher Education*, 8, 34-41.
10. Hamdova, M.T. (2020). *Improving the mechanisms for developing the management competence of the head of the preschool organization in the process of professional development* (p. 11). Tashkent.
11. Koblyanskaya, Y.V. (1995). *Psychological aspects of social competence* (p. 16). Saint-Petersburg.
12. Krasnokyt'skaya, S.N. (2005). *Analysis of the state of the problem of social competence in domestic and foreign literature* (p. 34).
13. Lebedev, S.A. (2004). *Glossary of basic terms* 320 (157 p.). Moscow: Academic Project.
14. Mamatqulov, X.A. (2017). *Improving information and methodological support for the development of professional competence in foreign languages in teachers* (pp. 17, 26). Tashkent.
15. Maxmudov, X.A. (2017). *Improving the didactic support of competent training of future masters* (p. 16). Tashkent.
16. Mel, Y. (1995). Social competence as the goal of psychotherapy: problems of the image of 'I' in a situation of fracture. *Psychological Issues*, 5, 61-68.
17. Milrud, R.P. (2002). *Language learning theory* (p. 122).

18. Muslimov, N.A., Qo'ysinov, O.A. (2014). *Technologies for the formation of methodological competence of future teachers of vocational education* (p. 10). Tashkent.
19. Nabiev, A.N., Jalolov, J.J. (2020). *Problems of competency-based approach in vocational education* (pp. 228-230). International scientific and practical conference. Tashkent.
20. Najmiddinova, Y.R. (2019). *Improving the methodology of formation of professional skills in college students on the basis of a competency approach* (p. 26). Tashkent.
21. Narziyeva, N.N. (2019). *Formation of research skills based on basic competencies in secondary school students* (p. 15). Samarkand.
22. Ojegov, S.I. (1986). *Dictionary of the Russian language* (796 p.). Moscow.
23. Omonov P.X. (2021). *Development of students' socio-cultural competence in teaching English through authentic video materials* (p. 14). Tashkent.
24. Proxorov, A.M. (1997). *Big encyclopedic dictionary* (1434 p.). Moscow.
25. Qo'ldoshev, A.T., Odinayev, R.Q. (2015). *Pedagogical and psychological significance of the manifestation of professional competence in pedagogy, psychology, education and upbringing* (p. 6). Traditional Republican scientific-conference materials of young scientists, masters and students on the role of young people with intellectual potential in education, science and industry. Tashkent.
26. Qodirova, M.T. (2021). *Scientific and theoretical bases of the problem of competence of an Arabic language teacher in an educational institution. Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology*, 4(3), 76-85.
27. Rabbimova, F.T. (2019). *Development of eternal-aesthetic competence of future teachers* (p.14). Tashkent.
28. Risqulova, K.Dj. (2017). *The system of formation of sociolinguistic competence of future English language teachers* (p. 22). Tashkent.
29. Robotova, A.S., Leontyeva, T.V., Shaposhnikova, I.G. (2006). *Introduction to pedagogical activity* (200 p.). Moscow: Academics.
30. Salimova, S.F. (2021). *Improving the methodological system for assessing the level of formation of professional competencies of future teachers* (p.11). Chirchik.
31. Samsonova, T.I. (2006). *Social competence of adolescents and technologies for its formation* (193 p.). Saint-Petersburg.
32. Shadrikov, V.D. (2009). *New specialist model: innovative training and competence-based approach* (pp. 26-34). Saint-Petersburg.
33. Sharipova, SH.S. (2020). *Improving the professional competence of a specialty teacher through developmental trainings in an innovative educational environment* (p. 11). Tashkent.
34. Shishov, S.Y., Agapov, I.G. (2002). *Competent approach to education: whom or need?* (pp. 58-62). Tomsk.
35. Suleymonova, N.K. (2020). *Forming the professional competence of a future German language teacher through video content* (p.12). Tashkent.
36. Trishina, S.V., Xutorskoy, A.V. (2004). *Information competence of a specialist in the system of additional professional education*.
37. Tsetkov, V.V. (2002). *Formation of social competence of rural schoolchildren* (155 p.). Veliky Novgorod.
38. Turmatov, J.R. (2009). *Improving the didactic support of the methodology of formation of research competencies in teachers of vocational education* (p. 17). Tashkent.
39. Urazova, M.B. (2015). *Improving the technology of preparation of future vocational education teachers for design activities* (p. 12). Tashkent.
40. Ushakova, D.N. (1935). *Explanatory dictionary* (560 p.). Moscow.
41. Vahobov, M.M. (2007). *In the introduction of state educational standards based on a competency approach - as a paradigm of modern education* (p. 5). Tashkent.
42. Verbitskiy, A.A., Larionova, O.G. (2009). *Personal and competent approach to education: problems of integration* (336 p.). Moscow: Logos.

43. Xutorskoy, A.V. (2002). *Key competencies and educational standards*.
44. Zeyer, E.F., Pavlova, A.M., Simanyuk, E.E. (2005). *Modernization of vocational education: competence-based approach* (pp. 25-30, 48). Moscow.
45. Zimnyaya, I.A. (2006). *General culture and social and professional competence of a person*.
46. Zimnyaya, I.A. (2003). *Key competencies - a new paradigm of educational outcomes* (pp. 34-35). 5<sup>th</sup> Proceedings of the experiment and innovation at school. Moscow.